
Ko'chalar obodonlashtirildi

Ijtimoiy tarmoqlarda Buvayda tumani "Yashnarobod" va "Yangi qo'rg'on" MFYlari hududidagi 15 ta ko'p qavatli binolar qurilganiga 40 yildan oshgan bo'lsada bu binolarga haligacha kanalizasiya o'rnatilmagani, binolar yonidagi maishiy chiqindilar tashlanadigan yerda chiqindi qutilari yo'qligi haqida lavha berildi.

Holat yuzasidan viloyat Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo'yicha Buvayda tuman inspeksiyasi tomonidan tumandagi "Yashnarobod" MFY hududidagi ko'p qavatli uylar atroflarida xashar yo'li bilan obodonlashtirish ishlari olib borildi. Xasharga tuman obodonlashtirish boshqarmasi ishchilari, "Toza xudud" DUK tuman filialini jalb qilgan holda "Yashnarobod" MFY raisi bilan birgalikda ko'chalar obod qilindi.

2022-09-28 09:16:19